
Tumanimizda hunarmandchilik tanlovi respublika bosqichi o'tkazildi

Kecha Rishton tumanidagi "Xalqaro kulolchilik markazi"da hunarmandchilik tanlovi respublika bosqichi o'tkazildi.

"Yoshlar oyiligi" doirasida o'tkazilgan "Kasblar tanlovi"da respublikamizni barcha viloyatlaridan tashrif buyurgan hunarmandlarning ko'rgazmalari tashkil etildi va viloyatimizning taniqli san'atkorlari ishtirok etishdi.

"Hunarmandchilik" yo'nalishi Respublika bosqichi bo'lib o'tdi, tanlovda Respublikamizning barcha viloyatlaridan ishtirokchilar faol ishtirok etdilar hakamlar hayatining yakuniy natijalariga ko'ra Qoraqalpoqiston Respublika 1-o'rin (100 mln so'm) Farg'ona viloyati 2-o'rin (75 mln so'm) Toshkent shahri 3-o'rin (50 mln so'm) qolgan barcha ishtirokchilar esa (15 mln so'm)lik vaucherlarni qo'lga kiritdilar.

Farg'ona viloyati sharafini himoya qilgan rishtonlik yosh kulol Javohir Usmonaliyev ikkinchi o'rinni qo'lga kiritib, 75 million so'm miqdoridagi mukofot puliga ega bo'ldi.

2023-06-16 09:11:08